

УДК: 616.994.4-614.4

РАСПРОСТРАНЕНИЕ РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ И СТАТИСТИКА ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Кучкарова И.Ш., Абдукодиров К.Ж.

Alfraganus University, Ташкент

Аннотация

Рак молочной железы — одно из самых распространённых и опасных заболеваний среди женщин в мире. В Узбекистане рак молочной железы также остаётся одной из главных причин смертности среди женщин. С увеличением числа случаев заболевания, а также с развитием методов диагностики и лечения, становится важным исследовать распространённость этой болезни, особенно среди женщин старшего возраста. Данная статья посвящена статистике, анализу и тенденциям распространения рака молочной железы в Узбекистане, с особым акцентом на высокую частоту заболеваемости среди женщин в возрасте 40-60 лет.

Annotation

Breast cancer is one of the most common and dangerous diseases among women worldwide. In Uzbekistan, breast cancer remains one of the leading causes of death among women. With the increase in the number of cases and the development of diagnostic and treatment methods, it becomes crucial to study the prevalence of this disease, especially among older women. This article is dedicated to the statistics, analysis, and trends of breast cancer prevalence in Uzbekistan, with a particular focus on the high incidence rates among women aged 40-60 years.

Annotatsiya

Ko'krak raki — dunyo bo'ylab eng keng tarqalgan va ayollar o'limiga olib keluvchi eng xavfli kasalliklardan biridir. Hozirgi kunda O'zbekistonda ayollarning boshqa turli kasalliklar bilan og'rishiga nisbatan solishtirganda, ko'krak va bachadon saratoni bilan kasallanish darajasi ikkinchi o'rinni egallashi va umumiy 25% ayollarni tashkil qilishini qayd etish lozim. Shuningdek, kasallikning erta bosqichda aniqlanishi va davolash usullari haqida xabardorlikning oshishi, kasallikni kamaytirishda muhim omillardan biri bo'lmoqda.

O'zbekistonda ko'krak raki kasalligining tarqalishi va yosh guruhlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida, ayniqsa 40-60 yoshdagi ayollarda ko'krak rakining yuqori darajada uchrashi haqidagi ma'lumotlar, ushbu maqolaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

O'RGANISH METODLARI.

Respublikamizda ko'krak raki kasalligiga qarshi kurashish uchun tashkil etilgan tadbirlar va ehtiyojlarga nazar solamiz.

Ko'krak raki tarqalishini kamaytirish uchun O'zbekistonda bir qator ijtimoiy va tibbiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunga quyidagilar kiradi:

- **Erta tashxis va screeninglar:**
Ko'krak rakini erta aniqlash uchun

mamografiya va ultratovush tekshiruvlari orqali ayollarni muntazam ravishda tekshirish;

- **Aholini xabardor qilish:** Ko'krak rakining oldini olish va erta aniqlashning ahamiyatini tushuntirish uchun keng ko'lamda turli ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish hamda televideniye, radio va internet orqali tushuntirish ishlarini targ'ibot qilish;
- **Genetik maslahatlar:** Ko'krak rakiga moyil bo'lgan ayollarni genetik tekshiruvlarga jalb qilish, BRCA-1 va BRCA-2 kabi genetik mutatsiyalarni aniqlash va shu orqali kasallikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar qo'llash.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.

O'zbekistonda ko'krak raki kasalligi tarqalishining statistikasiga nazar tashlasak, ko'krak raki kasalligining tarqalishi 2000-yillardan boshlab sezilarli darajada oshgan. Bunga bir qator omillar, jumladan, aholi sonining o'sishi, tibbiy tekshiruvlar va diagnostika metodlarining rivojlanishi hamda kasallik haqida xabardorlikning oshishi sabab bo'lmoqda.

Statistika bo'yicha, 2019-yilda O'zbekistonda ko'krak rakidan yangi kasallangan ayollar soni 10,000 nafarni tashkil etgan bo'lishi esa 2000-yillar boshlaridan beri sezilarli darsjada oshganligini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda 40 yoshdan yuqori ayollarda ko'krak raki ko'proq uchraydi. 2019-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, ushbu yosh guruhida kasallanganlarning 60

foizdan ortig'i 50 yoshdan katta ayollarni tashkil etgan. Ko'krak raki kasalligining erkaklar orasida uchrashi juda kam, ammo ayrim hollarda erkaklarda ham ko'krak raki qayd etilgan. Ayollarda esa, ayniqsa, 40-60 yosh oralig'ida ko'krak rakining yuqori darajada uchrashi kuzatilmoqda. Bu yosh guruhidagi ayollar odatda menopauza davriga yaqin bo'lib, gormonlar ta'sirida bo'lishi sababli, ko'krak rakiga chalinish ehtimoli oshadi.

Ko'krak raki kasalligining o'rtacha yoshi va geografik tarqalishi borasida ba'zi ma'lumotlarni misol tariqasida keltirib o'tamiz. Ko'krak rakining tarqalishi bo'yicha ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda ko'krak rakining o'rta yoshi 45-55 yosh atrofida. Biroq, so'nggi yillarda 30-40 yoshdagi ayollarda ham ko'krak rakining uchrash holatlari oshgan. O'zbekistonda ko'krak rakining tarqalishi hududiy farqlarga ega. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona kabi yirik shaharlarda ko'krak rakiga chalingan ayollar soni yuqori bo'lib, kichik shaharlarda va qishloq joylarda bu raqamlar nisbatan pastroq. Bu farqning sababi, asosan, tibbiy xizmatlarga murojaat qilishning pastligi, erta diagnostika vositalarining cheklanganligi, hamda atrof-muhit omillari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekistonda ko'krak rakining tarqalishida etnik omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek millatiga mansub ayollarda ko'krak rakining boshqa etnik guruhlar bilan solishtirganda nisbatan yuqori darajada uchrash

holatlari mavjud. Bu omilni ilmiy jihatdan o'rganish va kasallikning yuzaga kelishiga ta'sir qiluvchi biologik va atrof-muhit omillarini aniqlash juda muhimdir.

Maqolamizda shuni ham ta'kidlab o'tishimiz joizki, ko'krak raki kasalligining 40-60 yoshdagi ayollarda yuqori darajada uchrashining bir necha asosiy sabablari mavjud bo'lib, bu jarayon ba'zi o'zgarishlar asosida yuzaga kelmoqda. 40-60 yoshdagi ayollarda ko'krak rakining yuqori ko'rsatgichlarini namoyon qiluvchi birinchi sabablardan biri, bu yosh guruhida ayollarda gormonlar o'zgaradi, ayniqsa, menopauza davrida estrogen va progesteron gormonlarining darajasi o'zgaradi. Bu gormonlar ko'krak to'qimalarida o'smalarni rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Shu sababli, menopauza davrida ko'krak rakiga chalinish xavfi oshadi.

Ikkinchi sabab – bu yosh guruhidagi ayollar orasida erta diagnostika qilishning yetarli darajada keng tarqalmasligi. Ko'krak raki ko'pincha boshlang'ich bosqichlarda belgilar bermaydi, shu sababli erta aniqlash imkoniyatlari cheklangan bo'lishi mumkin. Boshqa sabablarga kiritilgan noaniq simptomlar va tibbiy tekshiruvlarning kamligi ham kasallikning keyingi bosqichlarda aniqlanishiga olib keladi. O'zbekistonda ko'krak raki kasalligining

erta bosqichlarda aniqlanishi uchun profilaktik screeninglar va tibbiy maslahatlarning ahamiyati juda katta.

O'zbekiston tibbiyotida ko'krak rakini davolash uchun ilg'or texnologiyalar va zamonaviy davolash usullari joriy etilmoqda. Kimyoterapiya, radioterapiya, gormon terapiyasi, va maqsadli terapiya kabi davolash metodlari ko'krak rakini davolashda samarali qo'llanilmoqda. 2010-yillardan boshlab, ko'krak rakining erta bosqichlarida kasallangan ayollarni davolashda yuqori natijalarga erishilgan. Shuningdek, ko'krak rakini davolashda ilg'or chet el tajribalari va ilmiy ishlanmalarining tatbiq etilishi O'zbekistonda davolash sifatini yaxshilashga yordam bermoqda.

XULOSA

O'zbekistonda ko'krak raki kasalligining tarqalishi tobora oshib bormoqda. Biroq, erta aniqlash va profilaktika usullari yordamida kasallikni kamaytirish mumkin. Ayniqsa, 40-60 yoshdagi ayollar orasida kasallikning yuqori darajada uchrashi, ushbu yosh guruhida gormonlar ta'sirida bo'lishi va erta diagnostika qilishning muhimligini ko'rsatadi. O'zbekistonda ko'krak raki kasalligining oldini olish va davolash bo'yicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy va tibbiy tadbirlar ahamiyatli bo'lib, ularning samaradorligini oshirish uchun yanada kengroq jamoatchilikni xabar-dor qilish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Global Cancer Statistics 2020. (2020). *CA: A Cancer Journal for Clinicians, 70*(2), 7–30.
2. Anderson, B. O., & Jakesz, R. (2008). "Breast Cancer in Developing Countries." *The Lancet Oncology*, 9(3), 201–210.

3. Perou, C. M., Sørlie, T., Eisen, M. B., et al. (2000). "Molecular portraits of human breast tumors." *Nature*, 406(6797), 747–752.
4. National Cancer Institute. (2021). "Breast Cancer Statistics." *National Cancer Institute Report*.
5. Marotti, L., & D'Angelo, L. (2016). "The Role of Imaging in the Early Diagnosis of Breast Cancer." *Breast Journal*, 22(1), 22-28.
6. Kucharova I.Sh. (2025). "The Rise in Diabetes among Young People and its Causes" *International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies*. Vol. 8 (2025), 9-11.
7. Kucharova I.Sh. (2024). "Rak kasalligi va uni davolashda yurtimizda olib borilayotgan chora tadbirlar". *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies* (CARJIS). ISSN (online): Volume 1 (2181-2454) | Issue 2 | November, 2024, 55-64.
8. Kucharova i.Sh., Rahmatullayeva Z.H. (2024). "Saraton kasalligi turlari va kelib chiqish sabablari" *TA'LIM VA TARAQQIYOT: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK, 2024 yil 14-noyabrdaagi II XALQARO TALABALAR KONFERENSIYASI - UCHINCHI RENESSANS. Toshken, 14-18 b.